



The history of the emergence of Arabic grammar and its earliest founder

Akmaljon GANIEV¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
10 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

Arabic language,
grammar,
morphology,
syntax,
nahw,
sarf,
Dualiy,
Basra,
Kufa,
Baghdad.

ABSTRACT

This article illuminates, based on evidence, how Arabic grammar was formed, the historical factors that led to this process, and the identity of the scholar who established the initial foundations of Arabic grammar.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp111-114>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Arab grammatikasining vujudga kelish tarixi va uning ilk asoschisi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

arab tili,
grammatika,
morfologiya,
sintaksis,
nahv,
sarf,
Dualiy,
Basra maktabi,
Kufa maktabi,
Bag'dod.

Ushbu maqolada arab tili grammatikasi qanday shakllangani, bu jarayonga sabab bo'lgan tarixiy omillar hamda arab grammatikasining ilk asoslarini yaratgan olim shaxsi dalillar asosida yoritilgan.

¹ PhD student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: abdulloh1995muhammad@gmail.com

История возникновения арабской грамматики и её первый основоположник

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

арабский язык,
грамматика,
морфология,
синтаксис,
нахв,
сарф,
Дували,
Басра,
Куфа,
Багдад.

В данной статье раскрывается, каким образом сформировалась грамматика арабского языка, какие исторические события способствовали этому процессу, а также на основе достоверных данных определяется учёный, впервые систематизировавший её основы.

KIRISH

Ma'lumki, jamiyatda biror yirik tarixiy voqea yuz berishi, xususan, biror ilm fanning vujudga kelishi uchun, dastavval, unga zarurat tug'ilishi, so'ng uning rivojlanishiga imkon beradigan shart-sharoit yaratilishi kerak bo'ladi. Arab tilshunosligining, xususan, uning so'z va jumlar tarkibini o'rganadigan qismi – sarf (morfologiya – so'zni o'rganuvchi fan) va nahv (sintaksis – gap tuzilishini o'rganuvchi fan)ning shakllanib, rivojlanishi ham bundan mustasno emas. Aksar olimlar: "Arab tilining grammatikasi paydo bo'lib, rivojlanishi bevosita islom dini yuzaga kelishi va shakllanishi bilan bog'liq", – degan fikrni ilgari suradilar. Chunki arablar islomdan oldin bunday qoidalarga ehtiyoj sezmagani. Bunga qisman Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) hayotliklarida va xulafoi roshidinlar* zamonida sodir bo'lgan ba'zi voqealar sabab bo'lgan.

Har bir narsa ehtiyojdan kelib chiqib paydo bo'ladi va rivojlanadi. Islom dinining keng tarqalishi va unga e'tiqod qiluvchilar sonini keskin ko'payib, ajam xalqlarning o'z dini tilini o'rganishga qiziqishlari arab grammatikasining shakllanishiga sabab bo'ldi. Arab tilining ajralmas qismiga aylangan nahv ilmining yuzaga kelish omillari hamda uning asoschilari borasida manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlar ichida Abu-l-Asvad Dualiy (hijriy 603-688-yillar) nahv ilmining asoschisi, degan fikr boshqalaridan ustun. Bu fikrni bir nechta dalillar bilan asoslash mumkin. Ulardan biri Ali ibn Abu Tolib (r.a) Abu-l-Asvad Dualiy o'rtalarida bo'lib o'tgan voqea. Voqea Abu-l-Asvad Dualiy so'zidan hikoya qilinadi:

"(Kunlardan birida) Ali ibn Abu Tolib (r.a) huzuriga kirdim. U zotning qo'lida (bir narsalar yozilgan) xat bor edi. Men u kishidan: "Bu nima, ey, mo'minlar amiri?", – deb so'radim. Shunda u zot: "Arablarining so'zlashuv nutqi haqida o'ylab turib, u (ya'ni so'zlashuv nutqi) arablarining ajamlar (arab bo'lmagan qabila vakillari) bilan birga yashashni boshlaganlari sababli buzilib ketganini sezdim. Shundan so'ng (til qoidalari bo'yicha) murojaat qilinadigan, suyaniladigan biror narsa tuzib chiqmoqchi bo'ldim", – dedida, menga haligi yozuvni uzatdi. Unda "So'zlarning hammasi: ism, fe'l va harf bo'ladi. Ism – (o'sha so'z bilan) nomlangan narsani ifoda etadi. Fe'l – uning yordamida (narsalar haqida) xabar beradi. Harf esa mustaqil ma'no anglatmaydigan (so'z)", – deb yozib qo'yilgan edi. Menga: "انْحُ هذه النحو" (shu uslubda davom et) va o'zing bilgan ma'lumotlarni qo'sh", – dedi...

* Xulafoi roshidin – "راشد" – "Allohning to'g'ri yo'liga boshlovchi," "خلفاء" – "Muhammad Payg'ambar(s.a.v)ning mamlakatni boshqarishdagi o'rinbosarlari".

Men nahvning biror bo'limini tuzib chiqsam, u kishiga ko'rsatar edim. Bu holat to yetarli miqdor to'plangunga qadar davom etdi. U zot “ما أحسن هذه النحو الذي قد نوحث” (sen yurgan yo'l, uslub qanday ham yaxshi)”, – dedi. Shundan so'ng bu ilm “النحو” [nahv] (tomon, jihat) deb nomala boshladi” (Tarjima A. G'aniyevniki).

Ikkinchi voqea ham aynan Abu-l-Asvad Dualiy bilan sodir bo'lgan. Bu voqea Muhammad Tantoviyning “نشأة النحو و تاريخ أشهر النحاة” [Nash'atu-n-nahv va ta'ri: xu ashhuru-n-nuḥa:ti] (“Nahv ilmining paydo bo'lishi va mashhur nahvshunoslar* tarixi”) asarida quyidagicha tasvirlanadi:

“Umar ibn Xattob* (r.a.) xalifalik davri edi. Kunlardan bir kun bir kishi (Madina shahriga) kelib: “Kim menga Muhammad(s.a.v.)ga Alloh taolo nozil qilgan narsa(Qur'oni karim)dan o'qib beradi?” – dedi. Shunda bir kishi “Tavba” surasidagi quyidagi oyatni o'qib berdi:

أَذْنُ مِنَ اللَّهِ وَرَسُولُهُ إِلَى النَّاسِ يَوْمَ الْحَجِّ الْأَكْبَرِ أَنَّ اللَّهَ بَرِيءٌ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولُهُ

“Bu Alloh va Payg'ambaridan odamlarga “Hajji akbar” kunidagi bildiruvdir. Alloh va Payg'ambarining mushriklar bilan oralari ochiqdir.” – degan oyatdagi رَسُولُهُ so'zini رَسُولُهُ (unda oyatning mazmuni “Allohning mushriklar va o'z rasuli bilan orasi ochiqdir”, bo'lib qoladi) deb o'qidi. Shunda haligi kishi: “Allohning o'z rasuli bilan orasi ochiq? Allohning rasuli bilan orasi ochiq bo'lsa, unda mening ham u bilan oram ochiq” – dedi. Shunda bu gaplar xalifa Umar ibn Xattob(r.a.)ga yetib bordi va uni (Madinga kelgan kishini) chaqirtirib aytdiki: “Ey a'robiy, sening Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan orang ochiqmi?” – dedi. Shunda u: “Ey, mo'minlar amiri, men Madinaga keldim. Qur'on karim borasida ilmim yo'q edi. “Kim menga Qur'on o'qib beradi?” – dedim. Menga bir kishi “Tavba” surasidan bir oyatni رَسُولُهُ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولُهُ “Allohning mushriklar va o'z rasuli bilan orasi ochiqdir,” – qilib o'qib berdi. Shunda men: “Allohning o'z rasuli bilan orasi ochiq? Allohning rasuli bilan orasi ochiq bo'lsa, unda mening ham u bilan oram ochiq,” – dedim”, – deb aytdi. Hazrati Umar: “Unday emas, ey a'robiy!” – dedi. U: “Unda qanday, ey mo'minlar amiri” – dedi. Hazrati Umar: “أَنَّ اللَّهَ بَرِيءٌ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولُهُ” (Alloh va Payg'ambarining mushriklar bilan oralari ochiqdir) bo'ladi.” – dedi. Shunda haligi kishi: “Alloh va rasulining orasi ochiq bo'lgan kishilar bilan mening ham oram ochiqdir.” – dedi. Shundan so'ng Umar (r.a.) Qur'oni karimni faqat lug'at olimlarigina o'qishini va Abu-l-Asvad ad-Dualiyga “nahv” qoidalarini ishlab chiqishni buyuradi (Tarjima A. G'aniyevniki).

Uchinchi hikoya Osim tilidan rivoyat qilingan hikoyada Abu-l-Asvad Dualiy Basra amiri Ziyoddan ajamlar sabab tilning o'zgargani, buzulib ketgani sabab nahv qoidalarini tuzib chiqishini so'raydi. Bu voqea Muhammad Tantoviyning (1928–2010-yillar) “نشأة النحو و تاريخ أشهر النحاة” [Nash'atu-n-nahv va ta'ri: xu ashhuru-n-nuḥa:ti] (“Nahv ilmining paydo bo'lishi va mashhur nahvshunoslar tarixi”) asarida keltirilgan.

Garchi dastlab nahv ilmining asoschisi Abdurrahmon ibn Hurmuz yoki Nasr ibn Osim degan qarashlar mavjud bo'lsada, keyinchalik bu fikrlar xato ekani asoslandi. Muhammad Tantoviy ham bu fikrlar noto'g'ri ekanini aytib o'tgan. Bundan tashqari ibn Anboriy bu ikki olimning nahv ilmini aynan Abu-l-Asvaddan o'rganganligini aytadi. Yuqorida keltirilgan rivoyatlarga nazar salsak, ularning barchasida nahv ilmining qoidalarini ishlab chiqish aynan Abu-l-Asvad Dualiyga topshirilganligi ko'rinib turibdi.

* **Nahvshunoslar** – arab tili grammatikasi bilan shug'ullanuvchi olimlar.

* **Umar ibn Xattob** – (hijriy 584–644-yillar) jannat bashorati berilgan 10 ta sahobalardan biri bo'lib, Muhammad payg'ambar(s.a.v)ning Abu Bakr Siddiq (hijriy 573–634-yillar) (r.a)dan keyingi xalifasi bo'lgan. 10 yil xalifalik qilgan (634–644-yillar).

Lekin bu bilan Abu-l-Asvad Dualiyni arab grammatikasining ilk asoschisi, deb xulosa bera olmaymiz. Chunki yuqorida keltirilgan birinchi rivoyatda arab grammatikasining eng dastlabki qoidalari Ali ibn Abu Tolib (r.a.) tomonidan tuzilganligi ta'kidlangan. Qolaversa, Dualiyning o'zi ham buni e'tirof etgan holda shunday deydi:

لَحِقْتُ حُدُودَهُ مِنْ عَلِيِّ بْنِ أَبِي طَالِبٍ²

“Uning (ya'ni nahv ilmining) chegaralari (qoidalari) Ali ibn Abu Tolibdan kelib chiqqan” (Tarjima A. G'aniyevniki).

Bu jumlada ishlatilgan “حُدُودُهُ” [ħudu:duhu] (chegaralari, chetlari) degan so'zda Dualiy uning boshlanish nuqtasini nazarda tutgan va uning asosini Ali ibn Abu Tolib (r.a.) tuzib berganiga ishora qilgan. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, nahv ilmining asoschisi Ali ibn Abu Tolib (r.a.), uning davomchisi esa Abu-l-Asvad Dualiy, deb xulosa qilish mumkin. Abu-l-Asvad Dualiy arab grammatikasining asosiy boblarini tuzib chiqdi. U Basra shahrida nahv ilmiga asos soldi. Kun sayin undan bu ilmni o'rganuvchilar soni ko'payib bordi. Uning qo'lida mashhur tilshunos olimlar yetishib chiqdi. Shu bilan arab tilshunosligidagi ilk eng katta tishunoslik maktabi – Basra maktabi paydo bo'ldi. Undan so'ng esa Iroqning yana bir shahri Kufada ham yana bir katta tilshunoslik maktabi paydo bo'ldi. Bu ikki maktab vakillari o'rtasida fikriy qarama-qarshilik natijasida arab grammatikasi rivoji kamoliga yetdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, arab tilining paydo bo'lish tarixi borasida kelgan barcha rivoyatlar bevosita Abu-l-Asvad Dualiy bilan bog'liq. Ularning barchasinin o'rganib, tahlil qilgandan so'ng ayta olamizki, arab tili grammatikasining ilk asoslarini Abu-l-Asvad Dualiy tuzib chiqqan. Uni tuzib chiqishida Ali ibn Abu Tolib ustoz vazifasini o'tab, ko'rsatma berib turgan. Grammatik qoidalarni ishlab chiqishga sabab bo'lgan asosiy omil islom diyori kengayib, arab xalqlari bilan birga boshqa millat vakillarini birgalikda yashashlari va buning oqibatida tilning asta sekin o'zgarib borishi sabab olimlar tilni o'zgarib ketishidan saqlash maqsadida hamda ajam xalqlarni arab tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonxon Temirxon o'g'li Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. – Anqara: Turkiya diyonat vaqfi, 2021. 611 b.

2. محمد طنطاوي. نشأة النحو و تاريخ أشهر النحاة. – القاهرة: دار المعارف. 2005. 326 ص.

3. محمد بن عبد العزيز النجار. ضياء السالك إلى أوضح المسالك. بيروت: دار الكتب العلمية. 1981. 417 ص.

4. كمال الدين أبو البركات عبد الرحمن بن محمد بن الأنباري. الإنصاف في مسائل الخلاف. مطبعة السعادة. 1961.

512 ص.

² O'sha asar – B. 20.